

## Barkamol Avlodni Shakllantirishda Oila Va Uzluksiz Ta'lim Hamkorligi

Xaydarov X<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ulg'ayib kelayotgan avlodni barkamol etib tarbiyalash, iste'dodli, izlanuvchan, tashabbuskor yoshlarni izlab topish va ularga o'z salohiyatini to'la namoyon etishida ko'maklashish keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, bilim, shaxs, taraqqiyot, oila, uzluksiz ta'lim, hamkorlik, muloqot.

Bugungi kunda yangicha fikrلaydigan, o'z kelajagini mamlakatimizning kelajagi bilan bog'liq holda ko'rдigani yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siyosida muayyan kasb, ba'zan bir necha yo'naliш bo'yicha diplom olgan, bir necha xorijiy tilni o'rgangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir so'z bilan aytganda, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko'zlaridan o't chaqnab turgan navqiron yigit-qizlarga ta'lim – tarbiya berish pedagoglardan katta ma'suluyat talab etadi. Hozirda O'zbekiston o'zining milliy iqtisodiyotiga malakali kadrlar tayyorlash sohasiga yetarli darajada moddiy, ma'naviy, yuridik va iqtisodiy bazalarini barpo etib, ularni kundan kunga takomillashtirib bormoqda.

Zamonavty ta'limning yangi maqsadlari barkamol shaxsni shakllantirish, o'z faoliyatini mustaqil tanlashni shakllantirishni nazarda tutadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonining sifati aksariyat xollarda, o'quvchining qay darajada bilish subyekti bo'lishi, o'qish jarayonida faollik ko'rsatishi va mustaqil bilim olishga intilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ulg'ayib kelayotgan avlodni barkamol etib tarbiyalash, iste'dodli, izlanuvchan, tashabbuskor yoshlarni izlab topish va ularga o'z salohiyatini to'la namoyon etishida ko'maklashish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yangi ta'lim maskanlarini barpo etilishi, ularni zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanishi, ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalarni tashkil etilganligi, o'quvchi va talabalarning zamonaviy bilim olishini ta'minlash bilan birga, ularning maishiy sharoitini yanada yaxshilash, sport bilan muntazam shug'ullanishi bo'yicha aniq rejalar hayotga keng tatbiq etilayotgani bunga aniq misol bo'la oladi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongiga (ta'lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. Talabani tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab va ma'suliyatli jarayon deb yuritiladi. Bunda albatta ta'lim muassasasi bilan birgalikda oiladagi tarbiya jarayoni ham muhim axamiyat kasb etadi.

Oilaviy tarbiya metodologiyasi va metodikasi tomonlarini, tarbiyaviy vazifalarni bir maromga solish, oilaning o'ziga xos xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini aniqlash, oiladagi asosiy vazifani xalq, odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigini emas balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota – onalarning kasb – hunari, oila a'zolarining ma'naviy, ruxiy munosabatlari xam barkamol avlod tarbiyasiga ta'sir etishini har bir ota – onalar tushunib yetishlari

<sup>1</sup> Samarqand VPYMO 'MM



zarurdir. Bundan tashqari ota- onalar oilaviy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etuvchi, obyektiv va subyektiv omillarni bilmog'lari lozim.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi yana shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning o'ziga xos kichik uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni nomoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning shakl va uslublarini umumlashtirish va unga biron – bir tavsiyalar berish noqulay va qiyindir. Ota – onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini barkamaol shaxslar qilib tarbiyalaydilar.

Hayot, taraqqiyot doimiy yuksalishda, yangi-yangi marralar sari odimlayveradi. Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir etuk mutaxassis yoshlar Vatanimiz rivoji yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarni amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli kuchdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, har tomonlama etuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni engish, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy shartidir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 637сон. 23.09.2020.
3. H.T.Omonov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. – Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2009. – 21-bet. 2
4. N.X.Avliyakulov, N.N.Musayeva. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik – T.: Cho‘lpon NMIU, 2012. 208 bet
5. N.N.Azizzoxjayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma, Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, Toshkent – 2006.
6. A.Musurmanov va boshqalar /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2020. -194 bet.

